

## **VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASHDA YANGICHA TIZIM - INSPEKTOR-PSIXOLOGLARNING VOYAGA YETMAGANLAR TARBIYASIDAGI O'RNI**

**To'rayev Jo'rabek Shonazarovich**

Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy Departamenti bosh inspektori,  
podpolkovnik

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida yosh avlodning ulg'ayib kamol topishidagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarning uyg'unligiga alohida e'tibor berildi. Tadqiqot jarayonida voyaga yetmagan bolalar bilan ishlashda inspektor-psixologlarning roli va ishlash tartibi to'g'risida mulohazalar keltirildi.*

**Kalit so'zlar:** yangicha tizim, inspektor, tarbiyalanuvchi, voyaga yetmagan tarbiyalanuvchi.

### **АННОТАЦИЯ**

*При анализе данной статьи особое внимание было уделено гармонии социально-этических отношений в развитии подрастающего поколения. В исследовании были представлены отзывы о роли и процедурах психологов в работе с подростками.*

**Ключевые слова:** новая система, инспектор, стажер, несовершеннолетний стажер.

### **ABSTRACT**

*In the analysis of this article, special attention was paid to the harmony of socio-ethical relations in the development of the younger generation. The study provided feedback on the role and procedures of psychologists in working with juveniles.*

**Keywords:** new system, inspector, trainee, juvenile trainee.

### **KIRISH**

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb aytgan chuqur ma'noli iborasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha yosh avlod tarbiyasining dolzarb masala ekanligi avvalgidan muhimroq ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Zero, farzandning oiladagi tarbiyasi, uning maktabdagi ta'limi hamda kelajakda o'z yo'lini topib ketishiga panja orasidan qarab, faqatgina ularning moddiy ta'minoti bilan ovora bo'lib qolayotgan ota-onalar, tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan

vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar hanuzgacha uchrab turibdi.

Buyuk islomshunos faylasuf Imom G'azzoliy "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" hamda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlar bilan davlatimiz vakolatli idoralari tomonidan Ichki ishlar organlariga voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi - voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Yuqoridagi qonunlar talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, ichki ishlar organlari bir necha yo'nalishda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirib kelmoqda.

Garchand, shu kunga qadar ham ichki ishlar organlari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirib kelingan bo'lsada, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi ichki ishlar organlari bo'linmalarining faoliyati samaradorligi yetarli natija bermadi, deb o'ylaymiz. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yil 12 fevralda o'tkazilgan Ichki ishlar vazirligi kengaytirilgan Hay'ati yig'ilishida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda yo'l qo'yib kelinayotgan ayrim kamchiliklar ko'satib o'tilib, ushbu yo'nalishda ishlashning yangi mexanizmi taklif etildi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish

sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori qabul qilindi. Qaror asosida, "Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 2000 ta psixolog shtat birligini joriy yilning 1 iyulidan qisqartirish evaziga tuman, shahar ichki ishlar organlari tarkibida 1 100 ta shtat birliklaridan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimlarini joriy etish, 2022 yilda qo'shimcha 900 ta shtat birligini kiritish orqali ularning soni 2 000 tagacha yetkazilishi hamda ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiy o'rta ta'lim muassasalari sifatida belgilandi. Shuningdek, yangi joriy qilingan tizim asosida, inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifalarini yuklash belgilandi. Bugungi kunda Hukumat qarori ijrosi ta'minlanib, Ichki ishlar vazirligi tizimida hududlar kesimida mutanosib ravishda 1 100 ta inspektor-psixolog lavozimlari jamlandi, ularga Halq ta'limi vazirligi tomonidan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar uchun umumta'lim maktablaridan xizmat xonalari ajratildi. Bu boradagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha vaqtinchalik nizom" tasdiqlanib, ularning faoliyatini tashkil etish mexanizmi belgilab berildi. Nizom asosida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalarning asosiy vazifalari etib, voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash;

voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chikish;

huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan ta'sir choralari qo'llash to'g'risida vakolatli organlarga yoki voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga takdimnoma va takliflar kiritish;

voyaga yetmaganlarni Markazlarga, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga, o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun taaluqli hujjatlarni tayyorlash va joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir kursatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni tashkil etish;

voyaga yetmaganlarning huquqini himoya qilish choralari ko'rish belgilab berildi.

Shuningdek, ushbu Nizomda inspektor-psixologlarning faoliyat samaradorligini belgilovchi indikatorlar sifatida quyidagilar belgilandi:

ta'lim muassasasi ichki nazoratida va voyaga yetmaganlar komissiyasi hisobida bo'lgan o'quvchilar sonining kamayishi;

voyaga yetmaganlar o'rtasida turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, ulardagi addiktiv xulq-atvor, asotsial xulq-atvor, suisidal xulq-atvor, jinoyatchilik darajasining pasayishi;

Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdagi harakat yoki holatga nisbatan qaramligi. Misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik.

Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid, ) - insonning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga zid bo'lgan, ma'naviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor ko'p hollarda uydan ketib qolish, "o'z dunyosiga" bekinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, o'zini-o'zi o'ldirishga suiqaqd qilishda namoyon bo'ladi.

Suisidal xulq-atvor - insonning o'zini-o'zi o'ldirishgaga suiqaqd qilish yoki o'zini-o'zi o'ldirish haqida fikrlaydigan, rejalashtiradigan va amalga oshiradigan xulq-atvor.

sinf dan tashqari, jamoat ishlariga jalb qilingan ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlar sonining kamayishi;

yoʻzda sogʻlomlashtirish, dam olish va ish bilan taʼminlashning uyushgan turlari bilan qamrab olingan oʻquvchilari sonining koʻpayishi.

Joriy etilgan mazkur tizimlar samarasida, hozirda inspektor-psixologlar umumtaʼlim maktablarida faoliyat yuritib, har bir oʻquvchi kesimida ularning turmush-tarzi hamda axloq-odob normalariga munosabati oʻrganib kelinmoqda.

Hozirda respublikada jami 10 115 ta maktablarda tahsil olib kelayotgan 6 mil 243 ming 764 nafar oʻquvchilar bilan inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan oʻrganish ishlari (60 094 nafarining xonadonlariga borib yashash sharoiti oʻrganildi, 57 173 nafarining ota-onasi bilan suhbatlar olib borildi, 6 187 nafarining ota-onasi MJtKning 47-moddasi asosida maʼmuriy javobgarlikka tortildi, 63 435 nafari bilan bevosita profilaktik ishlar olib borildi) jarayonida, ularning 52 069 nafari (0,83 foizi) tarbiyasi ogʻir ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Toshkent shahrida 326 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 459 913 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 6 744 nafari (1,4 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Toshkent viloyatida 884 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 505 131 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 4 722 nafari (0,93 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Samarqandda 1 267 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 746 465 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 2 900 nafari (0,38 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Sirdaryoda 318 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 155 948 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 1 693 nafari (1,08 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Jizzaxda 553 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 259 369 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 1 878 nafari (0,72 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Buxoroda 537 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 321 919 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 2 726 nafari (0,84 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Navoiyda 368 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 181 866 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 1 458 nafari (0,8 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Fargʻonada 959 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 671 442 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 4 869 nafari (0,72 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Andijonda 767 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 571 093 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 10 992 nafari (1,92 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Namanganda 712 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 509 491 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 4 568 nafari (0,89 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Surxondaryoda 932 ta maktab faoliyat koʻrsatadi, 511 559 nafar oʻquvchi tahsil olmoqda, ularning 1 757 nafari (0,34 foizi) tarbiyasi ogʻir;

Qashqadaryoda 1 217 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 641 213 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 3 784 nafari (0,59 foizi) tarbiyasi og'ir;

Xorazmda 549 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 357 247 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 2 639 nafari (0,73 foizi) tarbiyasi og'ir;

Qoraqalpog'istonda 726 ta maktab faoliyat ko'rsatadi, 351 108 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularning 1 339 nafari (0,38 foizi) tarbiyasi og'ir;

Tarbiyasi og'ir 52 069 nafar o'quvchilarning 36 790 nafari:

31 206 nafari darsga kelmasligi sababli;

1 814 nafari o'qituvchini mensimasligi sababli;

691 nafari noqonuniy jismlar olib yurganligi sababli;

2 750 nafari o'quvchilar bilan janjallashganligi sababli;

272 nafari pornografik mahsulotlar saqlaganligi sababli;

57 nafari zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib etuvchi materiallar saqlaganligi sababli nazoratga olingan.

Inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida to'g'ri yo'lga o'tganligi uchun 33 748 nafar (tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarning 64,8 foizi) voyaga yetmaganlar nazoratdan chiqarilib, 18 321 nafar (tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarning 35,2 foizi) voyaga yetmaganlar bilan hozirgi kunda ham profilaktik ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, olib borilgan profilaktik tadbirlar jarayonida 14 369 nafar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan to'plangan hujjatlar Voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalariga ko'rib chiqish uchun yuborilib, ularning 235 nafari o'quv tarbiya muassasalariga (shundan 69 nafari Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasiga, 166 nafari Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasiga) joylashtirilgan.

Joriy yilning 11 oyi davomida, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ota-onasi qarovisiz qolgan jami 10 674 nafar voyaga yetmaganlar Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga qabul qilingan.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga olib kelingan voyaga yetmaganlarning 4 119 nafari ota-ona qaramog'iga qaytarildi, 121 nafari o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, 146 nafari ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, 35 nafari mehribonlik uylarga, 76 nafari vasiylik organlariga topshirildi.

Voyaga yetmagan va yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ta'lim, madaniy-ko'ngilochar va sport-sog'lomlashtirish muassasalarida 5 323 ta turli to'garaklar tashkil etildi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar va yoshlarning jamiyatga salbiy ta'sir etuvchi hatti-harakatlarga qo'shib ketishlarining oldini olish maqsadida ta'lim muassasalarida davomatning yuqoriligini ta'minlash, dars mashg'ulotlariga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarni ta'limga qaytarish bo'yicha 93 769 marotaba "Davomat" tadbirlari o'tkazilib, dars mashg'ulotlariga sababsiz qatnashmagan 9 017 nafar o'quvchilar ta'limga qaytarildi, 1 586 nafar farzandlarini nazoratsiz qoldirgan ota-onalarga hamda 248 ta ta'lim muassasalari xodimlariga nisbatan tegishli choralar ko'rildi, tadbirlar davomida o'quv mashg'ulotlarida qatnashmay yurgan 3 706 nafar voyaga yetmaganlar aniqlanib, voyaga yetmagan ishlari bo'yicha komissiyalariga 1 590 ta hujjatlar yuborildi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining avvalgi tizimi huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganni tegishli ta'sir chorasini ko'rish maqsadida aniqlashni ko'zda tutgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorini qabul qilishdan asosiy maqsad, g'ayriijtimoiy harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlanishini inkor etmagan holda:

birinchidan, inspektor-psixologlarning xizmat xonasini umumta'lim maktablarida joylashtirib, har bir o'quvchini bevosita o'rganib, ularning orasidan tarbiyasi og'ir va g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga moyillarini ajratish;

ikkinchidan, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarning kelajakda huquqbuzarlik odir etishiga omil bo'lib xizmat qilayotgan holatlarni (nosog'lom muhit, og'ir moddiy yoki ijtimoiy hayot va h.k.) bartaraf etish yo'li bilan huquqbuzarlikni olini olish;

uchinchidan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganni aniqlab, uni qayta tarbiyalash yo'li bilan huquqbuzarlikning oldini olish hisoblanadi.

Zero, katta hayotning ilk bosqichlarida shaxsga berilgan jazo, ushbu jazo adolatli bo'lsa ham voyaga yetmagan shaxsning butun umrini izdan chiqarib yuborishiga olib keladi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2018.
2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 2 июндаги “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонуни. // <https://lex.uz/docs/1633102>

- 
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси.  
<https://lex.uz/docs/111460> .
  5. Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПК-4125-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4172023>
  6. *Маматкулов Т. Б., Закурлаев ва бошқ А. К.* Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 176 б